

**YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY VA UMUMINSONIY
QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA AXSIKENT TARIXIY
MEROSINING O‘RNI**

Abduvohidov Qobiljon Komiljon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasida tayanch doktoranti

E-mail: Abduvohidovqobiljon2001@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-2605-1756>

Tel: +998 91 053 88 01

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21267078>

Annotatsiya: Qadriyat tushunchasining mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllari juda ham uzoq tarixga ega. Shuning uchun ham qadriyatlarni o‘rganish uchun avvalo tarixga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki u orqali qadriyatlarni shakllanish jarayoni va xususiyatlarini bilib olishimiz mumkin. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalarini falsafiy va ma’naviy jihatdan tahlil qilingan. Shu bilan birga, Axsikent shahrining boy tarixiy, madaniy va intellektual merosi hamda uning bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek muallifning fikrlari, qarashlari, xulosalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Qadriyatlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, Axsikent, qadriyatshunoslik, jamiyat, inson, axloq, ijtimoiy ong, sabr-toqat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik.

Аннотация: Сущность, содержание и формы проявления концепции ценностей имеют глубокие исторические корни. В связи с этим изучение ценностей требует первоочередного обращения к истории, поскольку именно исторический подход позволяет раскрыть особенности и закономерности процесса их формирования. В данной статье с философской и духовно-

нравственной точек зрения анализируются вопросы формирования национальных и общечеловеческих ценностей в сознании молодежи в условиях Нового Узбекистана. Наряду с этим освещается богатый исторический, культурный и интеллектуальный потенциал древнего городища Ахсикент, а также его воспитательное значение в современную эпоху. В работе последовательно изложены авторские суждения, взгляды и ключевые выводы.

Ключевые слова: Ценности, национальные ценности, общечеловеческие ценности, Ахсикент, аксиология, общество, человек, мораль, общественное сознание, терпение, трудолюбие, патриотизм.

Abstract: The essence, content, and forms of manifestation of the concept of values possess a deeply rooted history. Therefore, exploring values necessitates a historical approach, which enables a comprehensive understanding of their formation processes and core characteristics. This article provides a philosophical and spiritual analysis of the issues surrounding the development of national and universal values in the minds of youth within the context of New Uzbekistan. Furthermore, the rich historical, cultural, and intellectual heritage of the ancient city of Akhsikent, along with its contemporary educational significance, is comprehensively highlighted. The author’s insights, perspectives, and ultimate conclusions are systematically presented in the paper

Keywords: Values, national values, universal values, Akhsikent, axiology (qadriyatshunoslik), society, human, morality, social consciousness, tolerance (sabr-toqat), hard work, patriotism.

Axsikentning tarixiy rivojlanishi mil.avv. IV–III asrlardan boshlab shakllanib, ilk o‘rta asrlarga kelib to‘liq rivojlangan siyosiy-hududiy markaz ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Uning geografik joylashganligi Farg‘ona vodiysining g‘arbiy qismida, qadimiy savdo yo‘llari kesishgan hududlarga to‘g‘ri kelishi, shaharni mintaqaviy siyosiy tuzilmalar uchun muhim tayanch nuqtaga aylantirgan.

Shahar bir necha tarixiy bosqichlarda Farg‘ona vodiysi siyosiy boshqaruvining markazi vazifasini bajargan [1]. Bu haqidagi ma’lumotlarni Mirzo Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida uchratishimiz mumkin. Axsikentning ilk shakllanishi jarayonlari Farg‘ona vodiysi madaniyatining qadimgi urbanizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Arxeologik ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo‘lsak bu davrda shahar qo‘rg‘on, istehkom va mudofaa devorlari bilan o‘ralganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu davrga xos asosiy belgilar: dastlabki shahristonning shakllanishi, dehqonchilik va hunarmandchilik markazining paydo bo‘lishi edi. Farg‘ona-Talas yo‘li bo‘yicha savdo almashinuvlarining kuchayishi. Axsikent aynan shu davrda hududiy ahamiyatga ega bo‘lgan shahar sifatida shakllangan [2]. Axsikent shunchaki shahar emas, u qadimgi Farg‘ona Davan davlatining, keyinchalik esa Amir Temur va Boburiylar davrida vodiydagi yirik siyosiy va harbiy-strategik markazlardan biri bo‘lgan.

“Qadriyat” deganda xalq qadrlaydigan, hurmat qiladigan va ezozlaydigan, yuksalishga, taraqqiyotga hamda farovonlikka yo‘naltirilgan ma’naviy boyliklarni tushunishimiz lozim [3]. Milliy qadriyatlar bu har bir xalqning o‘z tarixi, madaniyati, tili, dini, urf-odatlari va turmush tarzi davomida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan bebaho ma’naviy va moddiy boyliklar majmuidir. Qadriyatlar millatning o‘ziga xosligini va ma’naviy qiyofasini belgilab beradi. Sodda qilib aytsak millatni millat qiladigan, uni boshqa xalqlardan ajratib turadigan va avloddan-avlodga meros tarzida o‘tib kelayotgan umumiy muqaddas tushunchalardir misol uchun til, tarixiy xotira, an’analar, vatanparvarlik va oila muqaddasligi hokazolar. “Milliy qadriyatlar xalqning ijtimoiy-tarixiy tajribasi jarayonida shakllanib, saralanib, uning ma’naviy ehtiyojlariga aylangan va ijtimoiy ong barqarorligini ta’minlovchi fundamental mezonlardir. Ular har bir shaxsning o‘z milliy hamjamiyati bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlovchi ma’naviy-kognitiv asos vazifasini o‘taydi [4]. “Tarixiy obidalar, qadimgi shahar xarobalari va ajdodlar

qoldirgan moddiy meros milliy qadriyatlarning eng yaqqol va barhayot ko‘rinishidir. Chunki tarixiy xotirasini yo‘qotgan xalq o‘zligini va milliy qadriyatlarini saqlab qola olmaydi [5].

Umuminsoniy qadriyatlar – jahondagi barcha odamlar, xalqlar va davlatlar uchun umumiy qadrlash mezonini hisoblangan, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar tizimini ifoda etadigan tushuncha. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko‘lamli va serqirra tushunchadir. U ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt-saodat kabi umumijtimoiy ma’no-mazmun kasb etadigan tushunchalardangina iborat emas. Uni faqat madaniy boyliklar sifatida tushunishni ham maqsadga muvofiq, deb bo‘lmaydi. Shu bilan birga, muayyan milliy, etnik va boshqa xususiy qadriyat tizimlari ham umuminsoniy qadriyatlarning o‘rnini bosa olmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar tizimi va uning namoyon bo‘lish shakllarini tahlil qilish, aslida, tarkibiy qismlari bir-biri bilan dialektik tarzda bog‘langan umumiy tizimni, uning asosiy qismlari o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilishdir [6].

O‘zbek xalqi jahon miqyosida azaldan moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratishda yetakchilardan hisoblanadi. Hamda o‘zining tafakkur quvvati, qobiliyati, istedodi mehnatkashligi bilan Markaziy Osiyoda fanlar, madaniyat, adabiyot, san’at, axloqiy va falsafiy g‘oyalarining vujudga kelishida hamda madaniy boyliklar yaratishda, rivojlantirishda doimo bardavom bo‘lgan. Xalqimiz tomonidan sevib o‘qiladigan rivoyatlar, dostonlar, ertaklarga nazar tashlaydigan bo‘lsak bularda xalqimizning voqealarni oldindan ko‘ra oladigan zukkoligi, mehnatkashligi, qobiliyati, doimo kelajakka intilib yashaganini guvohi bo‘lamiz. Demak bu xalq dostonlari biz uchun xalqimiz tarixini chuqurroq anglash uchun ma’lum bir darajada turtki bo‘ladi. Chunki xalq tomonidan yaratilgan bu o‘g‘zaki ijod namunalarida ma’lum bir hududning ijtimoiy –iqtisodiy, madaniy sohalari ko‘rsatib o‘tilgandir. Bu orqali qadimiy hududlarni tadqiq qilish va ular haqida ma’lumot yig‘ish onsonlashadi. Axsikentga nazar tashlaydigan bo‘lsak bunga

yaqqol shohid bo‘lamiz chunki bu hududda hunarmandchilik yuksak darajada rivojlangandir. Axsikentda hunarmandlar tomonidan aqlni lol qoldiradigan ajoyib amaliy sanat, yuksak badiiy did va mahorat bilan ishlangan hunarmandchilik buyumlari bilan qadim zamonlardan hozirgacha dunyo xalqlari o‘rtasida shon-shuhrat qozonib kelmoqda. Hunarmandchilik bizning xalqimiz uchun ajdodlardan saqlanib kelayotgan meros, bebaho qadriyatdir hamda yurtimizda hunarmandchilik paydo bo‘lishi va rivojlanishi dunyo miqyosida juda kata ahamiyatga ega hisoblanadi. Axsikent tarixining eng rivojlangan davri X-XII asrlarga to‘g‘ri kelib aynan shu davrda ulkan shaharga aylangani arxeologik tadqiqotlar orqali isbotlandi. O‘sha davrda Axsikent maydoni 400 gektarni tashkil qilib, Farg‘onaning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida katta rol o‘ynaganligi aniq misollar bilan ko‘rsatib berilgan [7]. Ma‘lum bo‘lishicha, o‘z zamonasining amaliy fanlariga tayangan quruvchi ustalar shaharni suv uzatish tizimini hozirgi metro qurilishi usulida bunyod qilishgan. Avval pishiq g‘ishtdan gumbazsimon uslubda o‘ziga xos yer osti yo‘li qurilib, uning tubiga katta diametrli sopol quvurlar yotqizilgan. Suv ana shu quvurlar orqali oqqan. Quvur yo‘lining ma‘lum joylarida pishiq g‘ishtdan qurilgan yer osti kuzatish xonalari bo‘lgan. Sopol quvurlarda oqayotgan suv kuzatish xonasidagi kichik hovuz orqali o‘tadi. Bu quvur sistemasi shahar aholisiga kamida 300 yildan ortiq xizmat qilgan [8]. Yer osti suv ta‘minoti tizimining qurilishi ajdodlarimiz muhandislik bilimlari va bunyodkorlik an‘analarini milliy qadriyat darajasiga chiqqanligini, hamda abodonchilik xalq farovonligi va osoishtaligi muhim sanalganligini ko‘rishimiz mumkin. Axsikent ustalari tomonidan yuqori sifatli po‘latning ishlab chiqarilishi, uni qo‘shni respublikalarga sotilishi, mashhur qilichlarning tayyorlanishi o‘zbek xalqining qadimiy hunarmandchilik madaniyatida ustoz shogird an‘anasi va kasbga sadoqat kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida namoyon etadi. Temir ishlab chiqarish sohasi hunarmandlardan juda kata sabrni talab qiladi, chunki birgina yarim tayyor mahsulotni olish uchun kamida to‘rtta jarayon kerak hisoblanadi.

Axsikent hunarmandlari va ularning shogirtlari bu jarayonlarni sabr-toqat bilan yengib o‘tishgan. Sabr-toqat insonning ma’naviy kamolotini belgilovchi muhim umuminsoniy qadriyatlardan biri bo‘lib, u insonni turli sinov va qiyinchiliklarni matonat bilan yengishga undaydigan tushunchadir. Shu bilan birgalikda bu hududda tayyorlangan sifatli xom ashyolarni va sifatli qurollarni chet elga yetkazib berilishi esa millatlararo totuvlik, yurt tichligidan dalolatdir. Milliy qadriyat sifatida tozalik o‘zbek xalqining urf-odatlarini, turmush tarzi va madaniyatida muhim o‘rin tutadi. Bu jihatni hisobga oldan holda Axsikent hududida hammomlar qurilgaligi tozalik, ozodalik xalqimiz tomonidan qadrlanganligi, inson salomatligi, gigiyenasi uchun qulay sharoit yaratsihga harakat qilinganligiga yaqqol misoldir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Axsikent yodgorligi xalqimizning davlatchilik tarixi, shaharsozlik madaniyati va intellektual salohiyatini ko‘rsatuvchi ulkan ma’naviy xazina. Yangi O‘zbekiston poydevorini barpo etishda ushbu meros milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar bilan faxrlanish tuyg‘usini kuchaytirish barobarida, undagi bag‘rikenglik, ilm-fan va hunarmandchilik an’analari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hamohanglik kasb etadi. Axsikent merosini chuqur o‘rganish va yoshlar ongiga singdirish orqali o‘tmishdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklashimiz va uni rivojlantirishimiz mumkin. Bu esa o‘zgarishga uchrayorgan ijtimoiy ongni to‘g‘ri shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asqarov A. O‘zbekistonning qadimgi shaharlar tarixi. – T.: Fan, 2012. 72–89-betlar.
2. Asqarov A. O‘zbekistonning qadimgi shaharlar tarixi. – T.: Fan, 2012. 72–89-betlar.
3. Юсупов Э. Маънавий қадриятлар ва уларнинг тарбиявий аҳамити. Т.: 2003. –29 бет.

4. Siddiqova Sh.Sh. Globallashuv sharoitida ijtimoiy ong transformatsiyasi: Falsafa fanlari dok. (DSc) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023. – B. 24.
5. Erkayev A. Milliy g‘oya va ma’naviyat. – T.: Ma’naviyat, 2018. –89 bet.
6. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar lug‘ati. [Matn]: lug‘at. // Q. Nazarov va b. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2021. – 600 bet.
7. Анорбоев А., Исломов Ў., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона..... – 4 бет.
8. Рўзинов Б., Ражабова С ва бошқ. Наманган вилояти маданий мероси.... – 13 бет
9. Назаров Қ. Фалсафа асослари.-Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2012-755 бет.
10. www.ziyonet.uz
11. www.ziyo.uz
12. www.kitob.uz
13. www.uniliblary.uz